

## ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA ETNOS MADANIYAT VA TIL TUSHUNCHALARI

**Sh.A. To‘xtasinova**

Andijon Davlat Chet tillari instituti,  
Ingliz tili amaliyoti kafedrası o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot zamonaviy tilshunoslikda etnos, til va ong, din, madaniyat, etnos madaniyat, til tushunchasi va tilning etnik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Til, din va madaniyat tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqliklar haqida bayon etilgan. Jamiyat, til va mentalitet tushunchalarining chambarchas bog‘liqlari aks ettirilgan.

**Kalit so‘zlar:** etnos, til, ong, madaniyat, kommunikativ, tabiiy til, mentalitet, nolisoniy, botiniy nutq.

Konseptning lisoniy moddiylashuvida etnos, til va ong, din, madaniyat kabi insonga xos belgilar tizimi o‘rtasidagi hamkorlikning mavjudligini unutmazlik kerak. Inson his-tuyg‘ulari kabi konseptual tushunchalarning yuzaga kelishida bu belgilar tuzilishining o‘ziga xos o‘rni bor. *Etnos*da eng muhim aloqa vositasi bo‘lgan til urug‘, qabila, elat, xalq millat ko‘rinishidagi insonlarning ijtimoiy guruhi orasida paydo bo‘lganjamoaning birlashish shakli bo‘lib xizmat qiladi. Etnos quyidagi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liqdir: madaniyat, din, til, ong kabilar.

Ma‘lumki, ijtimoiy fanlarda etnos tushunchasini xalq ma‘nosida ham qo‘llaydilar<sup>24</sup>. Bu tushuncha madaniyat, til tushunchalari bilan bevosita bog‘langan, shuning uchun ham ruscha -o‘zbekcha lug‘atda “etnik” yoki “etnos” atamasi biror-bir xalqqa va uning madaniyatiga oid tushuncha deb qaraladi. “Etnogenez” esa biror xalqning kelib chiqishi deb tushunilgan<sup>25</sup>. Etnos insonlar yoki insonlarga xos tushunchalar majmuidir. Inson tabiatan ijtimoiy mavjudotdir<sup>26</sup>.

Darvoqe, *madaniyat* ana shu etnos (xalq)ning ijtimoiy va tarixiy jarayonida vujudga kelgan, jamiyat taraqqiyotida tarixan erishilgan, tsivilizatsiya bosqichini xarakterlaydigan moddiy va ma‘naviy xususiyatlarning majmuidir. Chunonchi, falsafa lug‘atida madaniyatga shunday ta‘rif beriladi, “Madaniyat (lotincha *cultura* parvarish qilish, ishlov berish) – ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida insoniyat yaratgan va

<sup>24</sup> Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi.–T.: O‘qituvchi, 1994. – B. 9.

<sup>25</sup> G‘ofurov Z. Falsafa lug‘ati. – T.: O‘zbekiston, 1976. – B.170.

<sup>26</sup> Abdurazzoqova Sh. Tafakkur gulshani. –T.: G‘afur G‘ulom, 1989. – B.30.

yaratayotgan hamda jamiyat taraqqiyotida tarixan erishilgan bosqichni harakterlaydigan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuidir"<sup>27</sup>.

*Din* – insoniyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismidir. *Din* e'tiqod hamdir. Bu e'tiqod har bir kishining shaxsiy ishidir. *Din* muayyan ma'lumot, his-tuyg'ular, toat-ibodat va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida ko'rinishi, uni idrok etish usuli va olamda insoniyat paydo bo'lgandan to bizgacha o'tgan davrlarning ilohiy tasavvurda aks etishidir. *Din* komil insonni tarbiyalashda salmoqli tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy va axloqiy kuchdir. *Din* nima ekanligi turlicha izohlansa-da, umumiy xulosa shuki, din ishonmoq tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng teran va eng go'zal ruhiy va ma'naviy ehtiyojlaridandir. Dunyoda dini, ishonchi bo'lmagan xalq yo'q. Chunki muayyan xalq dinsiz, e'tiqodsiz, biror-bir narsaga ishonchsiz holda yashay olmaydi. Dunyoqarashning tarixiy shakllaridan biri diniy dunyoqarashdir. Diniy dunyoqarashning muhim jihatlari diniy tuyg'u, diniy aqidalarga ishonish, sig'inish, diniy e'tiqod va shu kabilar tashkil qiladi. Ushbu o'rinda dinning o'zi nima, uning mohiyati nimadan iborat, din qay tarzda faoliyat olib boradi degan savollar ham tug'ilishi mumkin. Bu masala bilan ko'proq dinshunoslik va din sotsiologiyasi sohalari shug'ullanadi. Shuning uchun ushbu ishimizda bu masalaga keng o'rin bermay, qayd etilgan fikrlar bilan chegaralandik.

Til ham etnos va madaniyat bilan bog'liq bo'lgan hamda ularni yuzaga chiqaruvchi, vujudga keltiruvchi vosita sanaladi. Bular ichida til hukmron hisoblanadi. Bunda tilning noyobligi shundaki, u keltirilgan tushunchalar bilan uzviy bog'langan, uni operatsion tizim sifatida boshqa dasturlar uchuno'ziga xos qobiq deb qiyoslash mumkin.

Tildagi etnik xususiyatning yaqqol misoli ona tilini his qilishdir. Barcha xalqlarda til milliy his-tuyg'u va ong bilan uzviy bog'langan. Insonning o'z ona tiliga yaqinlik tuyg'usi har bir tilda obrazli tafakkurning takrorlanmas assotsiatsiyalarining mavjudligi bilan tushuntiriladi. Ular har bir so'zning o'ziga xos semantik to'liqligicha madaniy mazmunga ega bo'lib, til tizimida mustahkamlanadi va uning milliy o'ziga xosligini tashkil etadi.

Zero, tilsiz etnos (xalq) ham, madaniyat ham bo'lmaydi. Chunki insonning insoniyligi, madaniyligi til orqali aks etadi yoki yuzaga chiqadi. Falsafa lug'atida til haqida shunday yaxshi ta'rif berilgan<sup>28</sup>. Chunonchi, til – har qanday fiziologik belgi sistemasi, bu sistema inson faoliyati jarayonida bilish va kommunikativ (aloqa) funktsiyalarni bajaradi. Til tabiiy ham, sun'iy ham bo'lishi mumkin. Tabiiy til deganda

<sup>27</sup> G'ofurov Z. Falsafa lug'ati. – T.: O'zbekiston, 1976. – B. 275.

<sup>28</sup> G'ofurov Z. Falsafa lug'ati. – T.: O'zbekiston, 1976. – B. 483.

fikrlarni ifodalash formasi va kishilar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan kundalik hayotdagi til tushuniladi. Sun'iy til – kishilar tomonidan tor ehtiyojlar uchun yaratilgan tildir. Til ijtimoiy hodisa hamdir. U ijtimoiy rivojlanish jarayonida paydo bo'laldiva alohida har bir odamning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vositadaniboratdir. Til ayni vaqtda ongning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Til qobig'idan tashqari ong mavjud bo'lmaydi. O'z fizik tabiatiga ko'ra o'zi bildiradigan narsaga nisbatan shartli bo'lgan til belgisi, shunday bo'lishiga qaramay, pirovard natijada real voqelikni bilish jarayoni bilan bog'liqdir. Til jamg'arilgan bilimlarni qayd etish, qayta ishlash va saqlash hamda ularni avloddan-avlodga yetkazish vositasidir.

“Jamiyatning tilga, tilning esa o'z navbatida jamiyatga ta'sir qilishi”<sup>29</sup> haqidagi tezisdan kelib chiqilsa, mentalitet tilga, til esa mentalitetga ta'sir qilishini nazarda tutish lozim. Bunday chigal holatni, mentalitetni ta'riflashga urinishlarda ham kuzatish mumkin. Mentalitet tadqiqotiga bag'ishlangan adabiyotlarda ushbu tushunchaga ko'plab ta'riflar berib o'tilgan. Ulardan quyidagi ta'rifga to'xtalish mumkin: “Mentalitet tarixan shakllangan, nisbatan barqaror va o'ziga xos jamoaviy dunyoqarashlar majmuasi bo'lib, u kishilarning til va har xil xarakterlarida beixtiyor namoyon bo'ladi”<sup>30</sup>. Bunday ta'riflarda til xarakterning shakllaridan biri deb qaralsa, ikkinchidan tilni harakter, xulq bilan bir qatorga qo'yib alohida ta'kidlab, ajratib ko'rsatiladi. Ushbu ta'rifning o'zidayoq mentalitet va til o'rtasidagi munosabat mavjudligini ko'rsatuvchi bir qancha holatlarni kuzatish mumkin. Shunga ko'ra mentalitetning asosiy tarkibida: bir tomondan dunyoqarash, ikkinchi tomondan dunyoqarashdan kelib chiqadigan til xarakteri aks etadi.

Konseptning lisoniy moddiylashuv jarayoni yana bir muhim mental bosqichni bosib o'tishidir. Voqelikning tafakkurdagi umumlashgan in'ikosi – obrazning mantiqiy “qayta ishlanish” natijasida hosil bo'lgan konsept lisoniy “libos”ga ega bo'lishidan oldin ushbu “libos”ning tasavvurdagi aksi – modeli yuzaga keladi. Lisoniy voqelanish rejasi paydo bo'lgan zahotiy oq uni amalga oshirish uslubi izlanadi. Reja hamda “so'zsiz” model nolisoniy yoki “botiniy nutq” jarayonida yuzaga keladi. Botiniy nutqning yuzaga kelish muammosi bilan shug'ullangan psixolog va psixolingvistlar ushbu hodisani turlicha talqin qilib kelishmoqda, ulardan ayrimlari botiniy nutqni oddiygina qilib, o'z-o'ziga gapirish bilan tenglashtirsalar, boshqalari uni alohida tashqi (zohiriy) nutqdan butunlay farq qiluvchi hodisa sifatida ta'riflaydilar<sup>31</sup>. Umuman mental tuzilma konseptining lisoniy belgiga o'tish jarayoni qanday kechish masalasi

<sup>29</sup> Воркачев С.Г. Сопоставительная этносемантика телеономных концептов “любовь” и “счастье” Монография. – Волгоград: Перемена, 2003. – Б. 70.

<sup>30</sup> Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – Б. 21.

<sup>31</sup> Safarov Sh. Ko'rsatilgan manba. – Б. 24.

bahsli mavzudir. Manbalarda xalqning mentaliteti va an'analarini, madaniyatini ifodalovchi tilning xizmat doirasi turlicha ta'riflanadi. Masalan, o'zbek xalqi maqollari va hikmatlarida quyidagicha iboralarni uchratish mumkin.

a) Til – milliy madaniyat oynasi, uni saqlovchi xazina. Bu iborada leksik boylik, grammatik birliklar, idiomatik so'zlar, maqollar, umuman, folklor, badiiy va ilmiy adabiyotning boyliklari nazarda tutiladi.

b) Til – qudratli ijtimoiy - siyosiy qurol, ya'ni til orqali ijtimoiy, siyosiy, madaniy qarashlar uzoq vaqt saqlanadi va u orqali inson, millat shakllanadi. Xalq tili hamisha milliy ruh bilan chambarchas bog'langan<sup>32</sup>.

Jumladan, Sh.Abdurazzoqovanning "Tafakkur gulshani" nomli asarida buyuk bobomiz Alisher Navoiyning til va so'z insoniylikning asosiy belgisi ekanligi haqida aytgan quyidagi misralari keltiriladi:

*So'z durki, nishon berur o'lukka jondin,  
So'z durki, berur jong'a xabar jonondin,  
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin*<sup>33</sup>.

Albatta, til xalq og'zaki ijodini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, inglizlarda tilga nisbatan shunday fikrlar mavjud. Chunonchi, *til tafakkur libosi, til aql bezagi*. "Language is the dress of thought". Shuningdek, "Webster" izohli lug'atida tilni san'at darajasiga qiyoslab shunday fikrlar beriladi. "Language art is the group of subject taught in elementary and secondary schools for improving oral and written communication". Chunonchi, til san'at, oddiy qilib aytganda ma'lum bir mavzu yoki voqelikni og'zaki yoki yozma tarzda bayon etishdir<sup>34</sup>.

Darvoqe, til madaniyat yoki madaniy boylikni kelgusi avlodlarga yetkazuvchi nihoyatda muhim va qudratli kuchga ega bo'lgan vositadir. Zero, hozirgi zamon fanida til va madaniyatning o'zaro munosabatiga alohida e'tibor beriladi. Til insonning eng yuksak darajadagi mulkidir. U insonning, etnos (xalq)ning harakterini yorqin ifodalaydi, dunyo madaniyati bilan aloqasini belgilaydi. Bunda biz insonni u yashayotgan va har xil xarakterda bo'lgan jamiyat orqali bilsak, uning so'zlashayotgan tiliga qarab qaysi millatga xosligi va madaniyati darajasi haqida fikr yuritish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Umuman inson tili xalq, millat tafakkurining oynasidir va har bir millatning aqliy tuzilishi o'z tilida stereotip (andoza) sifatida shakllangan bo'ladi. Buni biz yuqorida

<sup>32</sup> G'ofurov Z. Falsafa lug'ati. – T.: O'zbekiston, 1976. – B. 184.

<sup>33</sup> Abdurazzoqova Sh. Tafakkur gulshani. –T.: G'afur G'ulom, 1989. – B. 165.

<sup>34</sup> Webster's – Webster's New World Dictionary of American English, third college edition: Simant Schuster, Inc., 1988. – B. 759.

qayd etgan manbalarda aytilgan fikrlar orqali tasdiqlashimiz mumkin.

Xullas, hozirgi kunda ilmiy bilishning lingvistik paradigmasida yetakchilik qiluvchi farazlar shuni tasdiqlaydiki, har bir til atrofimizni o‘rab turgan olamni konseptlashtirishning ma’lum bir usulini namoyon etadi. Bunda tilning ma’no anglatuvchi birliklari ma’lum “qarashlar tizimini, o‘ziga xos jamoa (kollektiv) falsafasini yaratadi, bu narsa barcha til sohiblariga majburiy sifat tariqasida yuklanadi”<sup>35</sup>. U yoki bu tilga xos bo‘lgan konseptual usul universal xarakterga ega bo‘lib, shu bilan birga u milliy o‘ziga xoslikni ham ifoda etadi, ushbu xususiyat “olamni turlicha ko‘rish”, turli xil tillar “prizmasi orqali” yoritish imkonini beradi.

Bu narsa lingvomadaniyatshunoslik fanining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi va uning rivojiga kuchli turtki beradi. Garchi lingvomadaniyatshunoslik kurtaklari V.Gumboldt davri bilan o‘lchansa-da, uning alohida fan sifatida tez sur‘atlar bilan rivojlanishi, o‘zining terminologik apparati va tadqiqot metodlari shakllanishiga ko‘ra XX asrning oxirlariga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham lingvomadaniyatshunoslik hozirgi kunda etnolingvistikaning eng yosh tarmog‘i hisoblanadi<sup>36</sup>.

“Tilda har doim qadimiy tilga xos qotishmani topamiz, bu narsanil orqali millatning harakteridan bilamiz. Tilni xalqning fikrlari va his-tuyg‘ular quroli sifatida o‘rganishga, haqiqiy til izlanishlari sifatida qarashga asos borligini anglaymiz. Til so‘zlovchi dunyoqarashi va ma’naviyatining aks etishidir”<sup>37</sup>. Bundan kelib chiqadiki, til uning sohiblari milliy – madaniy mentalitetini taqdim etish qobiliyatiga ega, u bilish vositasi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bu narsa milliy-lisoniy bilish kategoriyasini tilda o‘z ifodasini topgan olamni talqin qilishning o‘ziga xos (etnospetsifik) usuli sifatida qarash imkoniyatini beradi. Bu usul u yoki bu *madaniy lingvistika* uyushmasiga xos bo‘ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdurazzoqova Sh. Tafakkur gulshani. –T.: G‘afur G‘ulom, 1989. – 462 b.
2. Jabborov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi.–T.: O‘qituvchi, 1994.–312 b.
3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 91 b.
4. G‘ofurov Z. Falsafa lug‘ati. – T.: O‘zbekiston, 1976. – B. 483.
5. Webster’s – Webster’s New World Dictionary of American English, third college edition: Simant Schuster, Inc., 1988. – 1574 p.

<sup>35</sup> Алефиренко Н.Ф. Проблемы вербализации концепта: теоретическое исследование. – Волгоград: Перемена, 2003. – 196 с.

<sup>36</sup> Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании //Филологические науки 2001. № 1. - С.47.

<sup>37</sup> Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры – М.: Прогресс, 1985. – С. 373.

6. Алефиренко Н.Ф. Проблемы вербализации концепта: теоретическое исследование. – Волгоград: Перемена, 2003. – 196 с.
7. Воркачев С.Г. Сопоставительная этносемантика телеономных концептов “любовь” и “счастье” Монография. – Волгоград: Перемена, 2003.
8. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры – М.: Прогресс, 1985. – 450 с.